



THE REFLECTION OF POLITICAL RELATIONS IN “MAOSIR AL-MULUK”: A HISTORICAL-THEORETICAL ANALYSIS AND SCIENTIFIC APPROACH AS A SOURCE”

Gulizor Shodmonova

Doctoral student at the Institute of History, Academy of Sciences

Email: shgulizor@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: “Maosir al-muluk”, political relations, historical source, diplomacy, governance, political thought, Eastern history.

Received: 19.04.26

Accepted: 20.04.26

Published: 21.04.26

Abstract: This article presents a historical and theoretical analysis of political relations reflected in the work “Maosir al-muluk.” It examines interactions among rulers, principles of governance, and distinctive features of diplomatic relations described in the text. The study also evaluates the scholarly significance of the source, its role in the development of Eastern political thought, and its reliability in portraying historical events. The paper concludes that the work serves as an important source for the study of political history.

“MAOSIR AL-MULUK” DA SIYOSIY MUNOSABATLARNING AKS ETISHI: MANBA SIFATIDA TARIXIY-NAZARIY TAHLIL VA ILMIY YONDASHUV

Gulizor Shodmonova

Tarix instituti tayanch doktoranti

E-mail: shgulizor@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “Maosir al-muluk”, Temuriylar davri, siyosiy munosabatlar, tarixiy manba, davlat boshqaruvi, diplomatiya, siyosiy tafakkur, manbashunoslik, ijtimoiy iyerarxiya, legitimatsiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Maosir al-muluk” asarida aks etgan siyosiy munosabatlar tizimi tarixiy manba sifatida kompleks tahlil qilinadi. Asar Temuriylar davri siyosiy tafakkuri, davlat boshqaruvi, hukmdor va amaldorlar o‘rtasidagi munosabatlar, diplomatik aloqalar hamda siyosiy legitimatsiya masalalarini o‘rganishda muhim

manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida manbahunoslik, tarixiy-qiyosiy, tizimli va nazariy tahlil metodlari qo‘llanilib, asarning siyosiy diskursdagi o‘rni aniqlanadi. Shuningdek, Temuriylar davridagi siyosiy institutlar va ijtimoiy iyerarxiya “Maosir al-muluk” kontekstida yoritilib, ularning Sharq siyosiy tafakkuri rivojiga qo‘shgan hissasi ilmiy asosda baholanadi. Tadqiqot natijalari mazkur asarning nafaqat tarixiy, balki nazariy manba sifatidagi ahamiyatini ham ochib beradi.

ОТРАЖЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ В “МАОСИР АЛ-МУЛУК”: ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И НАУЧНЫЙ ПОДХОД КАК ИСТОЧНИК”

Гулизор Шодмонова

Докторантка Института истории Академии наук

Э-почта: shgulizor@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: “Маосир ал-мулук”, эпоха Тимуридов, политические отношения, исторический источник, государственное управление, дипломатия, политическая мысль, источниковедение, социальная иерархия, легитимация.

Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ политических отношений, отражённых в произведении «Маосир ал-мулук», как исторического источника. Данный труд рассматривается как важный материал для изучения политической мысли эпохи Тимуридов, системы государственного управления, взаимоотношений между правителем и чиновниками, а также дипломатических связей и механизмов политической легитимации. В ходе исследования применяются источниковедческий, сравнительно-исторический, системный и теоретический методы анализа, что позволяет определить место произведения в политическом дискурсе своего времени. Особое внимание уделяется политическим институтам и социальной иерархии эпохи Тимуридов в контексте данного источника, а также их влиянию на развитие восточной политической мысли. Результаты исследования раскрывают значимость «Маосир ал-мулук» не только как

исторического, но и как теоретического источника.

Kirish. Temuriylar davri butun Turon o'lkasi va kengroq ma'noda islomiy dunyo tarixida siyosiy institutlar, davlat boshqaruvi va diplomatik munosabatlar rivojida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrni o'rganishda yozma manbalar, xususan saroy tarixchilari va siyosiy-adabiy asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday muhim manbalardan biri sifatida "Maosir al-muluk" asari siyosiy tafakkur, hokimiyat konsepsiyasi va davlat legitimatsiyasi mexanizmlarini aks ettiruvchi muhim yozma yodgorlikdir.

Adabiyotlar sharhi. Temuriylar davri tarixini yoritishda Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" [1], Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" [2], G'iyosiddin Ali Yazdiyning "Ro'znomayi g'azovoti Hindiston" [3] hamda Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' as-sa'dayn" [4] kabi asarlari bilan bir qatorda Xondamirning shoh asari "Maosir al-muluk" alohida nazariy-siyosiy yo'nalishga ega manba sifatida ajralib turadi. Ushbu asarda hukmdor va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, siyosiy axloq, adolat va davlat boshqaruvi tamoyillari nazariy jihatdan yoritilgan. "Maosir al-muluk" [5] matni va uni boshqa Temuriylar davri manbalari bilan solishtirish, turli manbalarda siyosiy munosabatlarning ifodalanishini taqqoslash, siyosiy til va hokimiyat legitimatsiyasi diskursini o'rganish va tizimli yondashuv – siyosiy institutlar va ijtimoiy iyerarxiyani kompleks tarzda tahlil qilish jarayonida asosiy manbalarga murojaat qilindi.

Muhokama va natijalar. Siyosiy munosabatlarning nazariy asoslari "Maosir al-muluk" asarida siyosiy munosabatlar axloqiy-me'yoriy asosda talqin qilinadi. Hukmdorning asosiy vazifasi sifatida adolatni ta'minlash, ijtimoiy tartibni saqlash va diniy qadriyatlarga amal qilish ko'rsatiladi. Bu jihat Amir Temurga nisbat beriladigan "Tuzukot"dagi siyosiy qarashlar bilan uyg'unlik kasb etadi. Asarda hokimiyatni legitimlashtirishning bir necha asosiy mexanizmlari aniqlanadi, jumladan, ilmiy-diniy asos – hukmdor Alloh tomonidan tayinlangan shaxs sifatida talqin qilinadi, adolat konsepsiyasi – adolat hokimiyatning asosiy legitimlashtiruvchi omili sifatida ko'rsatiladi, tarixiy meros – hukmdorlar o'zlarini avvalgi buyuk sulolalar davomchisi sifatida taqdim etadi [5]. "Maosir al-muluk"da diplomatiya davlat siyosatining muhim qismi sifatida ko'riladi. Elchilar, ittifoqlar va siyosiy nikohlar orqali davlatlararo munosabatlar mustahkamlangan. Bu holat Abdurazzoq Samarqandiyning asarlarida ham batafsil tasvirlangan. Asarda jamiyat qatlamlari aniq iyerarxik tizim asosida tasvirlanadi: hukmdor, amaldorlar, harbiylar, ulamolar, oddiy xalq. Bu tizim markazlashgan davlat boshqaruvining barqarorligini ta'minlashga xizmat qilgan [6]. "Maosir al-muluk" asarining tahlili shuni ko'rsatadiki, u nafaqat

tarixiy voqealarni bayon etuvchi manba, balki siyosiy-nazariy traktat sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Asarda ilgari surilgan siyosiy g'oyalar Temuriylar davrining ideologik asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, asarda siyosiy hokimiyatning axloqiy asoslari alohida urg'u bilan berilgan bo'lib, bu Sharq siyosiy tafakkurining o'ziga xos xususiyatini namoyon etadi. G'arbiy siyosiy nazariyalar bilan taqqoslaganda, bu yondashuv ko'proq etik-me'yoriy xarakterga egadir [7].

Xulosa. “Maosir al-muluk” Temuriylar davrining muhim siyosiy-nazariy manbasi hisoblanadi. Asarda siyosiy munosabatlar axloqiy va diniy tamoyillar asosida talqin qilingan va bu tizimdagi siyosiy institutlar amaliy ravishda ishlashini tasdiqlaydi. Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat kuchli boshqaruv tizimi va tartib-intizomi bilan ajralib turgan hamda boshqa hududlar uchun namuna bo'lgan. Bu davrda xalqaro savdo yo'llari, xususan Ipak yo'li faol rivojlanib, Sharq va G'arb o'rtasida diplomatik va iqtisodiy aloqalar mustahkamlangan. Natijada turli xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv kuchayib, tinchlik va barqarorlik ma'lum darajada ta'minlangan. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek davrida ilm-fan va ta'lim rivojlanib, bu yutuqlar keyinchalik boshqa mamlakatlarga ham tarqalgan. Umuman olganda, Temuriylar davridagi siyosiy jarayonlar jahon sivilizatsiyasining rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Amir Temur tomonidan barpo etilgan markazlashgan davlat kuchli boshqaruv, qonun ustuvorligi va harbiy intizom orqali keng hududlarda barqarorlikni ta'minladi. Bu esa savdo yo'llarining xavfsizligini oshirib, Sharq va G'arb o'rtasidagi iqtisodiy va diplomatik aloqalarning rivojlanishiga xizmat qildi. Natijada turli xalqlar o'rtasida nafaqat savdo, balki madaniy va ilmiy almashinuv ham kuchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: “Sharq”, 1997.
2. Nizomuddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: “O'zbekiston”, 1996.
3. G'iyosiddin Ali. Ro'znomayi g'azovoti Hindiston. – Moskva: “Hayka”, 1958.
4. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla'i sa'dayn va majmayi bahrayn. – Toshkent: “Fan”, 1969.
5. Xondamir. Maosir al-muluk. – Tehron: “Milliy majlis”, 1993.
6. Shodmonova G. Xondamirning “Maosir al-muluk” asarining manbaviy ahamiyati va o'rganilishi. “Tamaddun nuri” jurnali. 11-son. 2025. – B. 232-236.
7. Shodmonova G. “Maosir al-muluk” - an important source about historical dynasties”. American journal of advanced scientific research. 2025.